

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№12

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal


2025 dekabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 397 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH | 24 |
| Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'iqinovna | |
| INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES..... | 28 |
| Turayeva Gulizahro | |
| BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI | 32 |
| Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor | |
| RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA | 39 |
| Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li | |
| ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL I | 43 |
| B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev | |
| ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI..... | 49 |
| Safarova Nasiba Gulmurod qizi | |
| ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ..... | 54 |
| Даниярова Улбосын Куатбаевна | |
| YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH | 58 |
| Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna | |
| HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI..... | 62 |
| Soliyev Azizbek Kamoldinovich | |
| НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА | 69 |
| Гольшева Елена Вячеславовна | |
| STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI | 76 |
| Musayeva Dilnoza Dilshatovna | |
| МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ..... | 81 |
| Уринов Адхамжон Акбарович | |
| MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI | 88 |
| A.Xakimov, X.Xakimov | |
| TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI..... | 95 |
| Xaitov Shaxzod Sharipboyevich | |
| SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI | 102 |
| Xusanova Maloxat Mengnorovna | |
| TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI | 107 |
| Saidova Kamola Xoshimovna | |



| | |
|--|-----|
| OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI | 111 |
| Tleuv Niyetulla Raxmanovich | |
| YUQORI MUSTAHKAM KOMPOZIT ARMATURALARDAN FOYDALANILGAN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARINING YUK KO'TARUVCHANLIGI VA UZOQ MUDDATLI DEFORMATSIYALARINI BAHOLASH | 114 |
| Mamajanova Odina Alisher qizi | |
| KORXONALARDA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI | 119 |
| Farog'at Xo'jabekova, Eshankulova Nafisa Komiljon qizi | |
| TEMIR YO'L INFRATUZILMASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINI QO'LLASH: CSR, ESG VA PRI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH | 124 |
| Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna | |
| THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OPTIMIZING MARKETING AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION | 128 |
| Sadikov Shoxrux Shuhratovich | |
| BANK FAOLIYATIDA "YASHIL" MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI..... | 133 |
| Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li | |
| TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI | 139 |
| Xaitov Shaxzod Sharipboyevich | |
| BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIGA DOIR MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI | 145 |
| Aripov Oybek Abdullayevich | |
| TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI | 150 |
| Karimov Nodirbek | |
| УТИЛИЗАЦИЯ ПОБОЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПЕРЕРАБОТКИ ХЛОПКА ДЛЯ СИНТЕЗА АНТИКОРРОЗИОННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ..... | 155 |
| Ситмуратов Тулкинбек Сабирбаевич, Баходиров Худайберган Баходир угли | |
| SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI..... | 163 |
| Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li | |
| O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATIDA XORIJIY INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI | 168 |
| Nazarova A.N. | |
| АВТОМАТИЗИРОВАННАЯ СИСТЕМА РАСЧЁТА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНИЗАЦИИ | 172 |
| Шухратов Мамуржон Шухрат угли | |
| BLOCKCHIAN, IOT (INTERNET OF THINGS) NING IQTISODIY SOHALARDA QO'LLANISHI | 178 |
| Avazov Ergash Xidirberdiyevich | |
| O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA KELGUSI YILLAR PROGNOZI..... | 182 |
| Ismailov Dilshod Anvarjonovich | |
| QISHLOQ XO'JALIGI KLASTERLARI MOLIYAVIY HOLATINING NAZARIY JIHATLARI | 190 |
| Dildora Yuldasheva | |
| TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINING HOLATI | 194 |
| Xalimov Shaxboz Xalimovich | |
| MAHALLA BUDJETI VA SOLIQLARNING YIG'ILUVCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI | 200 |
| Abdullayev Zafarbek Safibullayevich | |



| | |
|--|-----|
| BUDJET TASHKILOTLARIDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINING USLUBIY JIHATLARI..... | 206 |
| <i>Azizova Zilola Lochinovna</i> | |
| KOSHI – BUNYAKOVSKIY – SHVARS INTEGRAL TENGSIZLIGI VA UNING IQTISODIYOTDAGI ROLI..... | 212 |
| <i>Saipnazarov Shaylovbek Aktamovich</i> | |
| ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В АГРОПРОДОВОЛЬСТВЕННЫЙ СЕКТОР УЗБЕКИСТАНА: ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ, ПЕРЕРАБОТКА БИОМАССЫ И СТРАТЕГИИ СОКРАЩЕНИЯ ПОСТУБОРОЧНЫХ ПОТЕРЬ | 219 |
| <i>Эгамбердиев Хумоюн Хамрокулович</i> | |
| HOVUZ BALIQCHILIGI XO'JALIKLARIDA REJALASHTIRISHNING MUDDATLARI VA BOSQICHLARI | 227 |
| <i>Dosmuratova Shaxista Kengashovna, Menglikulov Bakhtiyor Yusupovich</i> | |
| O'ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI | 233 |
| <i>Ergashev Jamshid Jamoliddinovich</i> | |
| KON-METALLURGIYA KORXONALARINING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA KPINING O'RNI VA AHAMIYATI..... | 237 |
| <i>Ergashov Botirjon Ergashovich</i> | |
| SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI..... | 245 |
| <i>Ahmadjanov Ilyosbek</i> | |
| ACCELERATING SOCIOECONOMIC DEVELOPMENT IN RURAL AREAS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES: A COMPREHENSIVE ANALYSIS | 250 |
| <i>O.Q. Xudayberdiyeva, Z.B. Negmatullayeva</i> | |
| ISSIQXONALARDAN FOYDALANISHNING OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI BO'YICHA MUAMMONI ASOSLASH VA UNING MILLIY MANFAATLARGA ALOQADORLIGINI ANIQLASH | 256 |
| <i>Otavullaev Sukhrob Sa'dullo o'g'li</i> | |
| NAMANGAN VILOYATIDA DON MAHSULOTLARI NARXLARINI SHAKLLANTIRISHDA BOZOR TAJRIBASI | 260 |
| <i>Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li</i> | |
| RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISHNING JAHON TAJRIBASI: MUAMMO VA ISTIQBOL | 264 |
| <i>Mamadaliyev Akmaljon</i> | |
| ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ НАЛОГОВ В НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ..... | 269 |
| <i>Зайналов Джахонгир Расулович</i> | |
| FARG'ONA VODIYSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI | 274 |
| <i>Murodxiyeva Feruza Majidovna</i> | |
| TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI BARQARORLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYALARI..... | 280 |
| <i>Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna</i> | |
| LABOR MIGRATION IN UZBEKISTAN: SOCIO-ECONOMIC TRENDS AND DEVELOPMENT PROSPECTS | 285 |
| <i>Razakova Barno Sayfiyeva</i> | |
| U-NET BASED POLYP SEGMENTATION ON KVASIR-SEG DATASET: PERFORMANCE EVALUATION AND COMPARISON WITH STATE-OF-THE-ART METHODS | 289 |
| <i>Mukhriddin Arabboev, Shohruh Begmatov, Sukhrob Bobojanov</i> | |



| | |
|---|-----|
| IQTISODIYOT TARMOQLARI VA SOHALARI RIVOJLANISHIDA SUN'YI INTELLEKTDAN FOYDALANISH MASALALARI | 300 |
| <i>Davletov Islambek Xalikovich, Normirzayev Ulmasjon Muzaffarjon o'g'li</i> | |
| IQTISODIYOTDA SAMARALI RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH SHART-SHAROITLARI VA OMILLARI | 304 |
| <i>Karimova Iroda Abdusattarovna</i> | |
| "MENING MAKTABIM" LOYIHASINI OMMALASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI | 311 |
| <i>Diilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzayeva</i> | |
| ISSUES OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN THE EDUCATION MARKET | 320 |
| <i>Inomiddin Imomov</i> | |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА ОЦЕНКИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С УЧЕТОМ СТЕПЕНИ НОВИЗНЫ И ЭФФЕКТОВ | 324 |
| <i>Алиева Эльнара Аметовна</i> | |
| ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ В СИСТЕМУ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ | 331 |
| <i>Назарова Гулчехра Нурмуханбетовна</i> | |
| ECONOMIC GROWTH: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECT | 336 |
| <i>Bustonov Mansurjon Mardonakulovich</i> | |
| AGROKLASTERDAGI XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQALAR MEKANIZMINING BUGUNGI HOLATI | 342 |
| <i>Xaydarov Sardor Komil o'g'li</i> | |
| SIMSIZ ALOQA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TEMIR YO'L STANSIYALARIDA POYEZDLAR HARAKATINI TASHKIL ETISH | 350 |
| <i>Joniqulov Egamberdi Shavkat o'g'li</i> | |
| GENDER SIYOSATI VA DEMOGRAFIK O'SISHNING INSON KAPITALIGA TA'SIRI | 357 |
| <i>Ruzmetova Gulira'no Atabekovna</i> | |
| СОСТОЯНИЕ ВИТАМИННО-МИНЕРАЛЬНОГО ОБМЕНА (ВИТАМИН D, КАЛЬЦИЙ, МАГНИЙ, ФОСФОР) У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА С ОСТРОЙ ПНЕВМОНИЕЙ НА ФОНЕ ВЕГЕТАТИВНЫХ ДИСФУНКЦИЙ | 364 |
| <i>Абдурахмонов Жасур Нематович, Шарипова Олия Аскарровна, Бахронов Шерзод Самиевич</i> | |
| YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA TARKIBIY TUZILISHI | 373 |
| <i>Kalandarova Elnura Muzaffar qizi</i> | |
| ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОЦЕНКИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ АО ХУДУДГАЗТАЪМИНОТ | 377 |
| <i>Хусанов Дурбек Нишанович</i> | |
| ТЕМИР YO'L TRANSPORTIDA NAZORAT GABARIT QURILMALARINING ZAMONAVIY HOLATI, TAHLILI VA HARAKAT TAKRIBI GABARITLARINI ANIQLASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH | 384 |
| <i>Xidirov Erkin Irgashovich</i> | |
| QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA SAMARALI TAQSIMLASHDA RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI | 391 |
| <i>Amanbaev Amanali Ortazbaevich</i> | |



QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA SAMARALI TAQSIMLASHDA RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI



Amanbaev Amanali Ortazbaevich

Qoraqalpoq davlat universiteti
"Iqtisodiyot va turizm" kafedrası dots.v.v.b.
ORCID: 0009-0001-7298-2440

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanish, suv tanqisligining shakllanishi hamda rivojlangan xorijiy davlatlarning samarali suv taqsimoti tajribalari tahlil qilingan. Orol dengizi fojeasi boshqa daryolardagi ekologik inqirozlar bilan solishtirilib, transchegaraviy suv resurslari boshqaruvi dolzarb masala sifatida ko'rsatiladi. Kaliforniya, Xitoy, Misr va boshqa hududlardagi suv taqchilligi tajribalari hamda narx mexanizmlariga asoslangan taqsimotning afzalliklari yoritilgan. Tadqiqot natijalari suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: Suv resurslari, qishloq xo'jaligi, transchegaraviy suvlar, suv taqchilligi, samarali taqsimot.

Abstract. The article analyzes the use of water resources in agriculture, the emerging global water scarcity, and the experience of developed countries in efficient water allocation. The Aral Sea disaster is compared with ecological crises in other river basins, emphasizing the importance of transboundary water management. Case studies from California, China, and Egypt illustrate the impacts of overuse and the relevance of pricing mechanisms in water distribution. The findings highlight the need for rational water management, the adoption of advanced technologies, and improved economic tools to ensure sustainable agricultural water use.

Keywords: Water resources, agriculture, transboundary waters, water scarcity, efficient allocation.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы использования водных ресурсов в сельском хозяйстве, формирование дефицита пресной воды и опыт развитых зарубежных стран по эффективному распределению водных ресурсов. Аральская катастрофа сопоставляется с экологическими кризисами других рек, подчёркивая актуальность управления трансграничными водами. На примерах Калифорнии, Китая и Египта показано влияние перерасхода воды и преимущества ценовых механизмов распределения. Результаты исследования подтверждают необходимость рационального использования водных ресурсов и совершенствования экономических инструментов в условиях растущего водного дефицита.

Ключевые слова: Водные ресурсы, сельское хозяйство, трансграничные воды, дефицит воды, эффективное распределение.

KIRISH

Insoniyatning butun tarixi tabiiy resurslar uchun kurashdan iborat. Aynan bu kurash jahonda harakatlantiruvchi kuch va belgilovchi omildir. Hayot suvda vujudga kelgan va suvsiz davom ettirib bo'lmaydi. Kurrai zaminning 70 foizi suvdan iborat, faqatgina 3 foiz suv zahiralari chuchuk suv hissasiga to'g'ri keladi, bu taxminan 2,4 mlrd km³ni tashkil etadi. Chuchuk suv jamiyat hayoti va ishlab chiqarish tizimlari uchun juda muhim hisoblanadi.

Dunyo aholisi sonining ko'payib borishi tabiiy resurslar uchun kurashning keskinlashishiga olib keldi, natijada suv resurslariga talabning oshishi, suv inshootlariga bosimning ortishi, suv obyektlariga antropogen ta'sirning ortishi, oxir-oqibat suv resurslarining kamayishi, sifatining pasayishi va suv taqchilligiga olib kelgan.

Antropogen ta'sir natijasida yuzaga kelgan shunday suv tanqisligi sabab, XX asrda eng katta fojea - Orol fojeasi yuz berdi. Markaziy Osiyoning ikkita daryosi - Amudaryo va Sirdaryoning oqimidan sug'orish uchun foydalanish, shuningdek, ushbu manbalardan suv iste'molining boshqa turlari va ularga ta'siri natijasida pirovardida Orol dengizi maydoni tez qisqara boshladi.

Biroq, Orol ekologik halokati yirik daryolar oqimining salmoqli qismidan iqtisodiy foydalanish natijasida yuzaga kelgan yagona va birinchi emas, garchi u ko'lami va ayanchli oqibatlari bo'yicha barcha analoglardan ustun bo'lsa ham. Aslida Orol fojeasi ko'rinishidagi birinchi ekologik falokat AQShda 1950-yillarning boshlarida Kolorado daryosi bilan yuzaga kelgan, ammo bu holat jamiyatda jiddiy e'tiborni jalb qilmagan, chunki insoniyat tabiatni zabt etish ishtiyoqida yashagan va bundan tashqari, Kolorado daryosi Orol dengizi singari yopiq suv obyektiga emas, balki okeanga quyiladi. Bu esa o'zgalarning tashvishlanishiga sabab bo'lmagan. Kolorado daryosida 10 ta to'g'on qurilishi va sug'orish uchun suvning tortib olinishi natijasida daryoning quyi oqimidagi suv resurslarining 1922 yildagi 9 milliard m³ lik hajmining 1950-yillarga qadar yiliga 2–3 milliard m³ ga qisqarishiga va 1965-yilda amalda to'xtashiga olib keldi [1]. Daryoda suv faqat nooddiy ko'p yog'ingarchiliklar tufayli yuzaga kelgan.

Xitoyda ham shunday ofat Xuanxe daryo deltasida yuzaga kelmoqda. 1980-1989-yillarda daryoning quyi oqimidagi Lijin gidrologik stansiyasida yiliga nol oqimi bo'lgan kunlar soni 36 kunni, 1990–1997-yillarda sug'orish uchun suv olish natijasida 226 kunni tashkil etgan [2]. Shunday fojealarning navbatdagisini Nil daryosida ko'rish mumkin, bu daryoning o'zani boshida suv oqimi Asvan baland to'g'oni qurilishidan avvalgi yiliga 32 milliard m³ bo'lsa, bugungi kunda yiliga 1,8 milliard m³ gacha pasaygan. Gang daryosida suv oqimining halokatli pasayishi va quruq mavsumda qurib ketishi qayd etilgan. Xuddi shunday taqdir boshqa kichikroq daryolarni ham kutmoqda, masalan, Yaqin Sharqdagi lordaniya daryosi[3].

Bu kabi barcha ofatlarning oqibatlari Orol bilan solishtirganda biroq yumsha-tiladi, chunki sanab o'tilgan va tartibga solinadigan boshqa yirik daryolar Sirdaryo va Amudaryo kabi yopiq suv omboriga emas, balki Jahon okeaniga quyiladi. Biroq, masalan, Nil daryosi deltasida oqimning keskin qisqarishi allaqachon uning asta-sekin vayron bo'lishiga va chekinishiga, ekotizimining buzilishiga olib keldi. Organik moddalari oziq-ovqat sifatida xizmat qilgan Nil loyini olib tashlashning to'xtatilishi tufayli Nildagi tijorat baliq turlari soni 47 turdan 17 turga kamaydi va O'rta yer dengizining sharqiy qismidagi sardina zahiralari 83% ga kamaydi. Dunyo o'rtacha ko'rsatkichlaridan farqli ravishda O'zbekistonda turli yillarda suvdan foydalanish darajasiga qarab suv resurslarining 88-92% qismi qishloq xo'jaligida sug'orish maqsadlarida foydalanilgan [7].

1-jadval. Mamlakatlar bo'yicha suv tanqisligi misollari

| Mamlakat | Muammo | Sabab | Oqibat |
|--------------------------|--------------------|-----------------------|----------------------|
| AQSh (Kolorado) | Oqimning to'xtashi | Sug'orish, to'g'onlar | Delta yemirilishi |
| Xitoy (Xuanxe) | 0 oqimli kunlar | Sug'orish | Daryo qurishi |
| Misr (Nil) | Oqimning pasayishi | Asvan to'g'oni | Ekotizim yemirilishi |
| O'zbekiston respublikasi | 88-92% suv q/x ga | Samarasiz sug'orish | Orol fojeasi |

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Suv resurslaridan foydalanish bo'yicha dunyo miqyosidagi ilmiy tadqiqotlar chuchuk suvning cheklanganligi va antropogen bosimning ortishi global ekologik barqarorlikka ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Gleick XXI asr boshidan boshlab chuchuk suv resurslarining ekspluatatsiyasi ekotizimning tabiiy tiklanish imkoniyatidan tezroq ketayotganini ta'kidlaydi [8]. Xitoyda suv tanqisligining kuchayishi ham global jarayonning bir ko'rinishi bo'lib, Xia Jun va Chen Xuanxe daryosining quyi oqimida suv olish hajmining ortishi natijasida daryoning mavsumiy ravishda butunlay qurib qolishi holatlarini ilmiy tahlil qilgan [9]. Ular buni tartibga solinmagan sug'orish siyosati va aholi zichligining ortishi bilan bog'laydi.

Global ekologik xavf sifatida suv tanqisligi masalasini Brown va Ayres ham alohida ta'kidlaydi. Ularning fikricha, aholi sonining o'sishi, qishloq xo'jaligi maydonlarining kengayishi va sanoatlashtirish jarayonlari tabiiy suv zaxiralariga bosimni bevosita kuchaytirmoqda [10].

Transchegaraviy suv resurslari bo'yicha yirik xalqaro hisobotlardan birida IGRAC dunyodagi sug'orish uchun foydalaniladigan suvlarning 60 foizdan ziyodi 310 transchegaraviy daryo va 592 xalqaro yer osti suv qatlamlariga to'g'ri kelishini ma'lum qilgan [11]. Bu ko'rsatkich suvni adolatli taqsimlash va davlatlararo hamkorlikning strategik ahamiyatini ochib beradi.

Suvdan foydalanish bo'yicha tarixiy va statistik tahlillarda Shiklomanov va Balonishnikova XX asr davomida global suv iste'molining bir necha baravar oshganini, iste'mol qilinayotgan suvning katta qismi qayta tiklanmaydigan tarzda yo'qotilayotganini ko'rsatadi [12].



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi ilmiy manbalar, xalqaro hisobotlar, statistik ma'lumotlar va ilmiy maqolalar tahlil qilinib, suv tanqisligi tendentsiyalari va jahon tajribalari taqqoslandi. Orol fojeasi boshqa daryo havzalaridagi ekologik inqirozlar bilan solishtirildi. AQSh, Xitoy, Misr va boshqa davlatlarning suv boshqaruvi tajribalari o'zaro taqqoslandi. Olingan ma'lumotlar suv tanqisligi sharoitida narx mexanizmining ta'siri sodda talab funksiyasi yordamida modellashtirilib, proporsional taqsimot va narx mexanizmlari samaradorligi qiyosiy baholandi.

Tahlil va natijalar. Suv resurslarining yo'qotilishi ko'p bo'lgan holatda, suv resurslaridan samarali foydalanishda yana bir muammoli holat transchegaraviy suv resurslarining adolatlil taqsimlash masalasi juda dolzarb hisoblanadi. Hozirgi kunda jahondagi sug'orish uchun foydalanish mumkin bo'lgan suv resurslarining 60 foizdan ortig'i transchegaraviy suv havzalarida, jumladan, 310 transchegaraviy daryo va 592 transchegaraviy suv resurslari olish mumkin bo'lgan qatlamlarda joylashgan [4]. Bu raqamlar daryo va suv resurslarini adolatlil taqsimlash borasida jahon mamlakatlarida o'ziga xos tajriba shakllanganligini ko'rsatadi.

Tadqiqotchilar Shiklomonov va Balonishnikovalarning tadqiqotlariga ko'ra, "1900-yilda 579 km³ suv iste'mol qilingan bo'lsa, undan 331 km³ qismi, 2000-yilga kelib 3973 km³ suv iste'mol qilingan bo'lsa, undan 2182 km³ qismi qayta tiklanmay-digan tarzda sarflangan"[5]. Bu mos ravishda 57,16%ni va 54,92%ni tashkil etgan.

2-jadval. Dunyo bo'yicha suv iste'moli va yo'qotish dinamikasi

| Yil | Umumiy iste'mol (km ³) | Qayta tiklanmaydigan yo'qotish (km ³) | Ulushi (%) |
|------|------------------------------------|---|------------|
| 1900 | 579 | 331 | 57,16% |
| 2000 | 3973 | 2182 | 54,92% |

1986-1991-yillarda AQShning Kaliforniya shtatida barcha yer maydoniga mos ravishda proporsional taqsimotdan foydalanilgan[6]. Bunday holatda suv iste'molchilariga belgilangan miqdorda suv yetkazib beriladi, ta'minot uzilib qolmaydi, yetmasa-da suv resurslari bo'ladi, ammo bu usulning kamchiligi suv tejoychi texnologiyalardan foydalanishga qiziqish yo'q.

3-jadval. Kaliforniya suv taqsimoti tajribasi

| Yillar | Taqsimot usuli | Afzallik | Kamchilik |
|------------|-----------------------|-------------------|-----------------------------|
| 1986–1991 | Proporsional taqsimot | Barqaror ta'minot | Tejashga rag'bat yo'q |
| 1992–hozir | Narx mexanizmi | Tejamkorlik oshdi | Ba'zi fermerlar uchun qiyin |

Tadqiqotlar davomida o'rganilgan, suvni taqsimlash sxemalari va tegishli yo'qotish darajalari turli xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli metodologiyaga asoslangan holda o'rganib chiqilgan, bunda narxlarni tartibga solish bilan taqqoslangan. Shuningdek, tadqiqotchilar narxlarni tartibga solish suv tanqisligi sharoitida suv taqsimlashdagi afzal usul deb hisoblashadi. Biroq, agar biron sababga ko'ra, narxlarni tartibga solishdan foydalanish mumkin bo'lmasa, unda miqdoriy taqsimot sxemalaridan qaysi birini tanlash kerak bo'ladi. Odatda keltirilgan qisman muvozanat modeli doirasida turli xil taqsimot turlari ijtimoiy farovonlikka qanday ta'sir qilishi tahlil qilindi.

Deylik, har bir suv iste'molchisi k ($k=1, \dots, n$) o'z suv iste'moli darajasini maksimalashtirgan holda p baholi sharoitda quyida keltirilgan chiziqli tarif asosida x_t^k deb belgilaydi:

$$\max_{x_k(t) \geq 0} \int_0^T (v_k(x_k(t)) - px_k(t)) dt$$

bu yerda, T - davr (oy, yil)

Suv iste'molidan lahzalik manfaat $v_k(\cdot)$ ortib borayotgan va qat'iy botiq funksiya deb qabul qilinadi. Tushunarli bo'lishi uchun biz barcha iste'molchilar o'zlarining suv iste'moli bo'yicha baholariga ko'ra o'sish tartibida tartiblangan deb faraz qilamiz, ya'ni $v_1^1 < v_2^1 < \dots < v_n^1$. Bundan tashqari, soddalik uchun biz davr uzunligini birga teng deb hisoblaymiz.

Topshiriqni bajarishda cheklovlar bo'lmagan taqdirda suv iste'molchilar tekislangan iste'mol traektoriyasini afzal ko'rishi aniqlandi: $x_k(t) = x_k$, bu yerda, x_k - tenglamaning yechimi

$$v_1^1(x_k) = p$$

Suv iste'molining topilgan qiymatlarini masalaning (1.1) maqsad funksiyasiga almashtirib, barcha iste'molchilarni umumlashtirib, biz iqtisodiyotdagi umumiy iste'molchi profitsitini aniqlash imkoniga ega bo'lamiz:

$$CS(p) = \sum_{k=1}^n (v_k(x_k) - px_k)$$

Barcha iste'molchilar uchun x_k masalalarning yechimlarini umumlashtiramiz va cheklovlarsiz umumiy suv sarfini topamiz, biz buni X bilan belgilaymiz. Haqiqiy ta'minot ma'lum X ning bir qismi β ($0 < \beta < 1$) deb faraz qilib, suv resurslari tanqisligi holatini tadqiq etamiz. Narxning oshishi bilan tanqislikni bartaraf etish uchun yalpi talab βX ga teng bo'ladigan p_β tarifini topish kerak, ya'ni p_β tenglamaning yechimi quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

$$\sum_{k=1}^n v_k^{l-1}(p_\beta) = \beta X$$

Natijada topilgan tarif p_β va (1.2) tenglamadan topilgan $x_k p_\beta$ talab miqdorini maqsad funksiyaga almashtirib, $k: CS_k(p_\beta)$ iste'molchining ortiqcha iste'molini aniqlaymiz. Tariflarning oshishi suv ta'minoti kompaniyalariga qo'shimcha daromad olish imkonini berishi shubhasiz. Bu shuni anglatadiki, agar, dastlabki holatda suv ta'minoti korxonalarini xarajatlarni qoplaydigan tarzda tariflar belgilangan bo'lsa, endi korxonalar foyda ko'rdi va bu foyda iste'molchilarning kompensatsiyasi uchun ishlatilishi mumkin. Keyin ushbu kompensatsiyalarni hisobga olgan holda iste'molchi profitsiti shakllanadi.

$$CS^{comp}(\beta) = \sum_k CS_k(p_\beta) + (p_\beta - p)\beta X$$

Suv narxining oshishi bilan iste'molning o'zgarishini oddiy misol tariqasida ko'rsatib o'tamiz. Faraz qilaylik:

Suvga umumiy talab $X = 1000 \text{ m}^3$,

Mavjud suv miqdori – 700 m^3 , yani ($\beta = 0,7$),

10 ta iste'molchi mavjud.

Talab funksiyasi: $x = (100 - p)$

Hisoblash:

$10(100 - p) = 700$, bundan $p = 30$.

Natija: narx 30 ga yetganda umumiy iste'mol 700 m^3 ga tushadi va tanqislik bartaraf etiladi.

Yuqoridagi hisob-kitoblarni natijasidan ko'rinib turibdiki, suv resurslarini samarali taqsimlashda xorijiy mamlakatlarda turli xil tadbirlar amalga oshirilgan va vaqt o'tishi bilan ular ichidan ilg'or variantlari tanlanib olingan. Jumladan, iqtisodiyotning muhim qonunlaridan talab va taklif qonunlariga asosan istalgan tovar (yoki resurs)ga talabning oshishi o'z navbatida uning bahosini oshirishi lozim. Suv resurslariga ham shunday munosabatda bo'lish unga bo'lgan munosabatni o'zgarishiga olib kelishi tayin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, antropogen ta'sir sabab yuzaga kelgan Orol fojeasi ko'lami va ayanchli oqibatlar bo'yicha barcha analoglardan ustun bo'lib, insoniyat tarixida avval ham yuz bergan. Bunday fojearlar AQShda Kalorad daryosi, Xitoyda Xuanxe daryosi, Misrda Nil daryosi deltalarida ham yuz bergan. Ular Orol dengizi fojeasidan farqli ravishda yopiq suv inshootiga quyilmaydi.

Jahondagi sug'orish uchun foydalanish mumkin bo'lgan suv resurslarining 60 foizdan ortig'i transchegaraviy suv havzalarida, jumladan, 310 transchegaraviy daryo va 592 transchegaraviy suv resurslari olish mumkin bo'lgan qatlamlarda joylashgan.

Dunyoda suv resurslaridan insoniyat tomonidan foydalanish natijasida XXI asrda iste'mol miqdori oshib ketgan va turli ssenariylar bo'yicha taxminan 2025-2035 yillar oralig'ida chuchuk suv resurslari miqdori taqchilligi kuchli sezila boshlaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. Gleick P.H. Global freshwater resources: soft-path solutions for the 21-th century // Science.302. -№ 5650. 2003. -p. 1524-1527.
2. Xia Jun Yongqin David Chen. Water Problems and Opportunities in the Hydrological Sciences in China // Hydrological Sciences J. 46. -№ 6. 2001



3. Brown L., Ayres E. (Edit.) The World Watch Reader on Global Environmental Issues. N.Y. - London: W.W. Norton Co., 1998. -358 p.
4. International Groundwater Resources Assessment Centre (IGRAC), "Transboundary aquifers of the world map", 2015.
5. Shiklomanov I.A., Balonishnikova J.A. World water use and water availability: trends, scenarios, consequences // Water Resources Systems — Hydrological Risk, Management and Development // IAHS Publ. -№ 281. 2003. -p. 358–364.
6. Dixon L., Moore N.Y., & Pint E.M. (1996). Drought Management Policies and Economic Effects in Urban Areas of California, 1987-1992.
7. Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100